O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

JULIYEV MUXIDDIN KOMILOVICH

O‘ZBEKISTONNING TOG‘LI VA TOG‘OLDI HUDUDLARIDA EROZIYA JARAYONLARINI MODELLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA METODIKASI (Toshkent viloyati misolida)

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent - 2024

UO‘K: 631.459.2+ 504.064.37:528.8

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation of doctor of sciences (DSc)

Оглавление аннотация автореферата диссертации доктора наук (DSc)

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI” INSTITUTI MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

JULIYEV MUXIDDIN KOMILOVICH

O‘ZBEKISTONNING TOG‘LI VA TOG‘OLDI HUDUDLARIDA EROZIYA JARAYONLARINI MODELLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA METODIKASI (Toshkent viloyati misolida)

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent - 2024

Biologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/B223 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya “Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo‘jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari Instituti” Milliy Tadqiqot Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Gafurova Lazizakhon Akramovna** biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Turabayev Akmal Normuminovich** biologiya fanlari doktori, professor
	Shadiyeva Nilufar Iskandarovna biologiya fanlari doktori, dotsent
	Boboyev Hasan Odilovich qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020. B.01.15 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024 yil «24» avgust kuni soat 10^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 4-uy, O‘zbekiston Milliy universitetining Ekologiya fakulteti binosi, 2-qavat, 203-xona. Tel.: (+99871-246–67–72).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (72-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 4-uy, Tel.: (+99871-246–67–72).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 2-avgust kuni tarqatildi.

(2024 yil 2-avgustdagi 19-raqamli reyestr bayonnomasi).

Raximova Tura
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, biologiya fanlari doktori, professor

Allaberdiev Rustamjon Xamraevich
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash kotibi, biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Jabbarov Zafarjon Abdukarimovich
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda tuproq degradatsiyasi asosiy ekologik muammolar qatoriga kirgan va hisob-kitoblarga koʻra, umumiy yer maydonining taxminan 25 foizi degradatsiyaga uchragan. Dunyo boʻylab har yili 24 milliard tonna unumdor tuproq eroziya ta'sirida yoʻqolib bormoqda. 2050-yilga borib, dunyo aholisining soni 35 foizga oshib, 9,7 milliardga yetishi taxmin qilinmoqda, bu esa oziq-ovqat, ozuqa, tola va yoqilgʻi kabi qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga talabning oshishiga olib keladi[1]. Shu bois, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, degradatsiyaga uchragan yerlarni oʻz vaqtida aniqlash, maydonini hisoblash, jarayonni toʻxtatish va oldini olish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Jahonda tuproq eroziyasi bilan bogʻliq masalalarni yechishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yoʻnalishi boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, tuproq eroziyasini aniqlash, xaritalash, monitoring qilish va modellashtirishda masofadan zondlashning yangi usullaridan yanada samarali foydalanish, tog‘ va tog‘oldi hududlarda eroziya havfi bor yerlarni sun'iy yoʻldosh tasvirlaridan foydalangan holda geoekologik baholash, geoaxborot tizimlarini qoʻllashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikada soʻnggi yillarda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, jumladan milliy bogʻlarni monitoring qilish boʻyicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda va bu borada muayyan natijalarga erishilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2019 yildagi 484-son "2019-2028-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi qarorida[2] "...etalon ekotizimlarda bioxilma-xillik komponentlari uchun monitoring olib borishning markaziy boʻgʻinli yagona tizimini yaratish hamda tuproq degradatsiyasi tufayli ushbu komponentlarga salbiy ta'sirlarni zamonaviy geoaxborot texnologiyalari (GAT texnologiyalar) asosida davlat monitoringi axborot ma'lumotlar bazasini yaratish" muhim strategik vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Bu borada degradatsiyaga uchragan yerlarni masofadan zondlash, GAT texnologiyalari, turli modellashtirish usullarini qoʻllagan holda hududlarning kartografik bazasini yaratish, doimiy yangilab turish, iqlim oʻzgarishiga moslashtirish va tuproq yuvilishining bashorat xaritalarini tuzib, degradatsiya holatining oldini olish chora-tadbirlarini tuzish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi "Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlarini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-5065-son Farmoni[3], Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xoʻjaligida

[1] https://www.thegef.org/what-we-do/topics/land-degradation

[2] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2019 yildagi 484-son «2019-2028 yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi qarori.

[3] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi "Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlarini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-5065-sonli Farmoni.

yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-son Farmoni[4], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 10-iyunidagi “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PQ-277-son Qarori[5], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni[6] va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning III. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” va V. “Qishloq xo’jaligi, biotexnologiya, suv muammolari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo’nalishlari doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[7].

Eroziya jarayonlarini baholashda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, Georg-August-Universität Göttingen (Germaniya), Università Ca' Foscari Venezia, Departmentof Environmental Sciences, Informatics and Statistics (Venesiya), Southern Illinois University Carbondale (AQSh), National Research Center Egypt (Misr), University of Agriculture in Krakow, Department of Land Reclamation and Environmental Development (Polsha), Technical University of Denmark (Daniya), Natural Resources Management and Sustainable Development (Angliya), shuningdek Dimo nomidagi Moldovo tuproqshunoslik, agrokimyo va tuproqlarni muhofaza qilish instituti (Moldova), Dokuchaev nomidagi Tuproqshunoslik instituti (Rossiya), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Timiryazev nomidagi Rossiya davlat agrar universiteti, Uspanov nomidagi Tuproqshunoslik va agrokimyo instituti (Qozog‘iston), Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti (O‘zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Tog‘ tuproqlarida kechadigan eroziya jarayonlarini masofadan zondlash va geoaxborot tizimlarini qo‘llashga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: tuproq xaritalarini masofaviy zondlash usullari yordamida tuproq qoplami tasnifiga aniqlik kiritishi isbotlangan (Southern Illinois University Carbondale); tog‘ hududlari relyefini tavsiflovchi xaritalar tuzish jarayonida GAT texnologiyalarining muhimligi ko‘rib chiqilgan (National Research Center Egypt); tog‘li va tog‘oldi maydonlarda kechuvchi eroziya jarayonlari relyefning raqamli modeli asosiga tuzilgan qatlamlar xususiyatlariga bog‘liqligi aniqlangan (Natural Resources Management and Sustainable

[4]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-son Farmoni.

[5]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 10- iyunidagi “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PQ-277-son Qarori.

[6]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

[7]Dissertasiyaning mavzusi bo’yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi http://www.works.doklad.ru, http://www.km.ru, www.dissercat.com, researechget.net, http://www.fundamental-research.ru, www.webofscience.com va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

Development); masofadan zondlash va GAT texnologiyalarining tuproq eroziyasiga oid tadqiqotlarda degradatsiya turlarini aniqlashda muhimligi isbotlangan (N.Dimo nomidagi Moldova tuproqshunoslik, agrokimyo va tuproqlarni muhofaza qilish instituti).

Bugungi kunda dunyoda tog‘ va tog‘oldi hududlarida tarqalgan tuproqlarda kechuvchi eroziya jarayonlarini GAT texnologiyalari va masofadan zondlash usullari yordamida baholash bo‘yicha bir qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: tuproq eroziyasini baholashda va bashorat qilishda turli modellardan foydalanish va modellarni iqlim o‘zgarishi sharoitlariga moslashtirish; tuproqlarning eroziyaga xavfliligini aniqlashda turli omillarni o‘z ichiga olgan xaritalar bazasini yaratish; eroziya jarayonlarini monitoring qilish va xaritalashda yuqori aniqlikdagi masofadan zondlash tasvirlaridan foydalanish uslublarini takomillashtirish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoda klassik eroziyashunos olimlar tomonidan eroziya jarayonlarining kelib chiqish qonuniyatlari, jumladan, eroziyani yuzaga keltiruvchi omillar, eroziya jarayonlarining tuproqning xossa xususiyatlariga ta’siri, uning unumdorligini tiklash va uni muhofaza qilish bo‘yicha uzoq yillar davomida ko‘plab ma‘lumotlar to‘plangan. Jumladan, B.Pradhan, A.Arabameri, M.Zaslavsikiy, G.Surmach, G.Shvebs, V.Gussak, M.Kuznetsov, M.Doshanov, F.Kocherga, A.Xanazarov, S.Elyubaev, X.Maxsudov, L.Gafurova, G.Djalilova va boshqalarning ishlarini keltirib o‘tishimiz mumkin. Lekin tabiatni muhofaza qilish maqsadida alohida muhofaza qilinadigan tog‘ va tog‘oldi hududlarda kechuvchi eroziya jarayonlarini geofazoviy tahlil qilish va tuproq eroziyasini modellashtirish usullarini amalga oshirish, ularni takomillashtirish ya’ni masofaviy zondlash ma’lumotlari bilan yer usti ma’lumotlariga asoslangan zamonaviy yondashuvlarni joriy etish borasidagi ilmiy izlanishlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti MUNIS/CS/CQS/6 “Modernizing Uzbekistan National Innovation System (MUNIS) loyihasi (2022-2023), 609574-EPP-1-2019-1-IT-EPPKA2-CBHE-JP - “Markaziy Osiyoda madaniy meros aktivlariga ekologik xavfni baholash va kamaytirish” (2020-2024) loyihalari hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Milliy tadqiqot universiteti Ekologiya va suv resurslarini boshqarish kafedrasi va O‘zbekiston Milliy universiteti Biologiya fakulteti Tuproqshunoslik kafedrasi ilmiy-tadqiqot ish dasturlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tog‘ va to‘goldi hududlarida eroziya jarayonlarini geoaxborot texnologiyalari va masofadan zondlash usullari asosida baholash va tuproq eroziyasi jarayonlarini modellashtirish usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

MDH mamlakatlari tajribalari asosida mavzuga oid ishlarni tahlil qilish va ularga ko‘ra tog‘ va tog‘oldi hududida kechuvchi eroziya jarayonlarini aniqlash, baholash va modellarini yaratishda geofazoviy tahlil uslubining strategiyasini ishlab chiqish;

RUSLE modelini qo‘llash uchun eroziya jarayonlariga sabab bo‘luvchi tabiiy omillarni modelga moslashtirish maqsadida hududning tabiiy-iqlim sharoitlarini tahlil qilish;

iqlim o‘zgarishi sharoitiga bog‘liq holda tadqiqot obyekti o‘simlik va yer qoplami bo‘yicha ma’lumotlarni monitoring qilish maqsadida davriy sun’iy yo‘ldosh tasvirlarining turli indekslarini hisoblash asosida geofazoviy tahlil qilish;

MCDA modelini qo‘llash uchun asos bo‘luvchi birlamchi kartografik, gidrometereologik, hududda tarqalgan yer osti suvlari haqidagi ma’lumotlar va talabga javob beruvchi sun’iy yo‘ldosh tasvirlarini geofazoviy tahlil qilish;

OBIA (Object-Based Image Analysis) modelini qo‘llash uchun asos bo‘luvchi tadqiqot obyektining yuqori aniqlikdagi sun’iy yo‘ldosh tasvirlarini tanlash va geofazoviy tahlili orqali eroziya xavfi mavjud hududlarni ajratish va tematik xaritalarini yaratish;

tadqiqot obyektiga moslashtirilgan RUSLE modeli asosida eroziya jarayonlari natijasida yillik tuproq yo‘qotilishi ma’lumotlari aks ettirilgan tematik xaritalar yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Ugom-Chotqol milliy bog‘i tog‘ va tog‘oldi hududida tarqalgan tuproqlar va o‘simlik qoplami, yer osti suvlari va eroziya havfi bor tuproqlar olingan.

Tadqiqotning predmetini tog‘ va tog‘oldi tuproqlari, yer qoplami holatining o‘zgarish dinamikasi, yer osti suvlari va eroziya jarayonining bog‘liqligi, turli tematik xaritalar, eroziya jarayonlarini xaritalash va modellashtirish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dala va laboratoriya tadqiqotlari umumiy qabul qilingan uslublar bo‘yicha amalga oshirilgan. Ilmiy-tadqiqotlar masofaviy zondlash usullari va GAT texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshirildi. Jumladan, tadqiqot obyekti yer osti suv manbalari va tuproq eroziyasi jarayonlari o‘rtasidagi munosabatlar MCDA (Multi-Criteria Decision Analysis) modeli, sun’iy yo‘ldosh tasvirlarining geofazoviy tahlili OBIA (Object-Based Image Analysis) modeli, eroziya jarayonlari natijasida yillik tuproq yo‘qotilishi RUSLE modeli yordamida amalga oshirilgan, shu bilan birga o‘simlik indeksi (NDVI), yer qoplamining o‘zgarishi (LULC) indekslari asosida hisoblangan. Masofadan zondlash ma‘lumotlari GAT texnologiyasining QGIS, Google Earth, Google Earth Engine, ArcGIS va boshqa dasturlari yordamida qayta ishlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor oxirgi 60 yil davomida MDH mamlakatlarida olib borilgan tuproq eroziyasiga oid ilmiy, ular asosida bibliometrik ma’lumotlar bazasi yaratilgan tog‘ va tog‘oldi hududida kechuvchi eroziya jarayonlarini aniqlash, baholash va modellarini yaratishda geofazoviy tahlil usulining strategiyasi ishlab chiqilgan;

Ugom-Chotqol milliy bog‘ida iqlim o‘zgarishi sharoitida hududning o‘simlik dunyosi, yer qoplami ko‘rsatkichlarining 20 yil mobaynida o‘zgarishlarini aniqlashda sun’iy yo‘ldosh tasvirlarining vegetatsion indekslari hisoblari asosida geofazoviy tahlildan foydalanish yuqori aniqlikdagi ma’lumotlar berishi aniqlangan;

ilk bor tadqiqot obyektida eroziya jarayonlarining geofazoviy tahlilini o’tkazish va modellarni aprobatsiya qilish maqsadida yer osti suv manbalari va tuproq eroziyasi jarayonlari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashda, ko‘p mezonli qarorlarni tahlil qilishda MCDA modelining afzalligi va imkoniyatlari takomillashtirilgan;

ilk bor tadqiqot obyektida yuqori aniqlikdagi sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va OBIA (Object-Based Image Analysis) modeli orqali eroziya jarayonlarini avtomatik aniqlash usuli tatbiq qilingan va imkoniyatlari baholangan;

geofazoviy tahlilga asoslangan RUSLE modeli yordamida eroziya jarayonlarini modellashtirish maqsadida tadqiqot obyektining spetsifik xususiyatlarini inobatga olgan holda RUSLE modelining parametrlari moslashtirilgan va uning imkoniyatlari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tog‘ va tog‘oldi hududida kechuvchi eroziya jarayonlarini aniqlash, baholash va modellarini yaratish usuli strategiyasi yordamida eroziya jarayonlarini modellashtirishda asos bo‘luvchi baza yaratilgan;

geofazoviy tahlil asosida sun’iy yo‘ldosh tasvirlariga ishlov berish, ya’ni o‘simlik indeksi (NDVI), yer qoplamining o‘zgarishi (LULC) va yog‘ingarchilik ko‘rsatkichlari hisoblangan va hudud uchun tematik xaritalar ishlab chiqilgan;

MCDA modeli yordamida tadqiqot obyekti yer osti suv manbalari va tuproq eroziyasi jarayonlari o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi tematik xaritalar yaratilgan va ular asosida potensial yer osti suv manbalari hosil bo‘ladigan hududlar tasniflangan;

avtomatik xaritalash imkoniyatiga ega OBIA (Object-Based Image Analysis) modeli yordamida tadqiqot obyektining yuqori aniqlikdagi sun’iy yo‘ldosh tasvirlarining geofazoviy tahlili orqali eroziya xavfi mavjud hududlar ajratilgan va tematik xaritalar yaratilgan;

tabiiy iqlim sharoitini inobatga olgan holda RUSLE modelining asosi bo‘lgan eroziya jarayonlarini keltirib chiqaruvchi omillar ushbu ma’lumotlarga ko‘ra moslashtirilgan va ular asosida eroziya jarayonlari natijasida yillik tuproq yo‘qotilishi ma’lumotlari aks ettirilgan tematik xaritalar yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi umume’tirof etilgan tadqiqot usullari va olingan nazariy natijalarni amaliy ma’lumotlar bilan tasdiqlash, tadqiqot natijalarini o‘xshash yo‘nalishdagi boshqa mualliflarning natijalari bilan taqqoslash va tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘rganilgan hududda kechayotgan eroziya jarayonlarining monitoringini amalga oshirishda turli modellar imkoniyatlaridan foydalanilgan holda yerni masofadan zondlash va geofazoviy tahlil qilish usullarini integratsiya qilish bilan tog‘li hududlarda kechadigan eroziya jarayonlarini aniqlash, baholashda va modellarini yaratishda aniq axborotlar bilan ta’minlab berish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yaratilgan tematik xaritalar eroziyaga uchragan hududlar holatini yaxshilash bo‘yicha bir qator asoslangan ekologik tadbirlarni ishlab chiqishda, o’simlik dunyosi holatini tahlil qilish va uni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonning tog‘li va tog‘oldi hududlarida eroziya jarayonlarini modellashtirishning nazariy asoslari va metodikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy natijalar asosida:

Scopus ma’lumotlar bazasi asosida tuproq eroziyasi mavzusiga doir ingliz tilida chop etilgan maqolalar bazasi va statistik tahlil qilish usuli shakllantirilgan va

ushbu baza “O‘zbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish” loyihasini amalga oshirish guruhi doirasida olib borilayotgan “English for Science” dasturi orqali amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu bibliometrik ma’lumotlar bazasi yosh tadqiqotchilarning atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo‘nalishida olib borayotgan tadqiqot ishlarida eroziya jarayonlarini aniqlash, baholash, modellashtirish va ushbu jarayonlarga qarshi tuproqlarni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda dunyo tajribasini o‘zlashtirish orqali tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda xizmat qilgan;

MCDA (Multi-Criteria Decision Analysis) modeli yordamida yaratilgan tematik xaritalar Geologiya fanlari universiteti tarkibidagi Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti davlat muassasasi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi 2023-yil 12-dekabrdagi 08-4522 sonli ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot obyekti yer osti suv manbalari va tuproq eroziyasi jarayonlari o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi potensial yer osti suv manbalari hosil bo‘ladigan hududlarni tasniflash imkonini bergan;

OBIA (Objest-Based Image Analysis) modeli imkoniyatlaridan foydalanilgan holda yuqori aniqlikdagi GeoEye-1 sun’iy yo‘ldosh tasvirlarining geofazoviy tahlili asosida yaratilgan tadqiqot obyektining eroziya xavfi mavjud hududlari aks ettirilgan tematik xaritalar Geologiya fanlari universiteti tarkibidagi Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti davlat muassasasi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi 2023-yil 12-dekabrdagi 08-4522 sonli ma’lumotnomasi). Natijada ushbu ishlanma tog‘ va tog‘oldi hududlarida kechuvchi eroziya jarayonlarini avtomatik xaritalash imkonini bergan;

RUSLE modeli asosida yaratilgan eroziya jarayonlarini keltirib chiqaruvchi omillar va ushbu jarayonlar tufayli yillik tuproq yo‘qotilishi ma’lumotlari aks ettirilgan tematik xaritalar O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tarkibidagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023 yil 29-noyabrdagi 03-03/3-7523-sonli ma’lumotnomasi). Natijada eroziyaga uchragan tuproqlarning holatini yaxshilash bo‘yicha ekologik asoslangan tuproqni muhofaza qilish chora-tadbirlarini to‘g‘ri qo‘llash, lalmi yerlarda ekin turlarini to‘g‘ri tanlash va joylashtirishda xizmat qilgan;

Landsat-5 TM va Landsat 8 (OLI & TIRS) sun’iy yo‘ldoshlari tasvirlarining geofazoviy tahlil asosida yaratilgan o‘simlik indeksi (NDVI), yer qoplamining o‘zgarishi (LULC) va yog‘ingarchilik ko‘rsatkichlari aks ettirilgan tematik xaritalari O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tarkibidagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligining 2023 yil 29-noyabrdagi 03-03/3-7523-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu tematik xaritalar Ugom-Chotqol hududining 575 ming gektar

maydonida tarqalgan oʻsimlik dunyosi va yer qoplamining holatini tahlil qilish va uni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida oʻtkazilgan ilmiy-amaliy anjuman va forumlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 7 tasi shulardan Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalarida va 11 respublika jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 7 bob, xulosa, foydalanilgan ilova va adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 172 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida oʻtkazilgan tadqiqotlarning Oʻzbekiston va jahonda zaruriyati hamda dolzarbligi koʻrsatilgan, ishning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari shakllantirilib, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatlari asoslangan, ishning aprobatsiyasi va natijalarining joriy qilinishi, hajmi va tuzilishi boʻyicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **«Analyzing soil erosion trends in CIS countries through scopus database» (Scopus ma'lumotlari bazasi orqali MDH mamlakatlarida tuproq eroziyasi boʻyicha trendni tahlil etish)** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda, 61 yil davomida Scopus bazasida tuproq eroziyasi mavzusida chop etilgan maqolalarning bibliometrik tahlili berilgan. Ushbu bobda eroziya jarayonlari va sabablari (tadqiqotlar koʻpincha tuproq eroziyasiga olib keladigan omillarni, jumladan, qishloq xoʻjaligi amaliyotlari, iqlim oʻzgarishi, yerdan foydalanish va topografiyaning oʻzgarishini oʻrganish); eroziyani modellashtirish (tadqiqotchilar tuproq eroziyasini bashorat qilish va zaif hududlarni aniqlash uchun turli modellarni ishlab chiqish); eroziyani kuzatish va baholash (masofadan zondlash, GAT va dala oʻlchovlari kabi tuproq eroziyasini kuzatish uchun foydalaniladigan usullar va vositalardan foydalanish); tuproqni saqlash va degradatsiya jarayonlarini yumshatish (eroziyaga qarshi kurash choralarini koʻrib chiqish); qishloq va suv resurslariga ta'siri (tuproq eroziyasining ekinlar hosildorligi va suv sifatiga ta'sirini muhokama qilish, yerni barqaror boshqarish amaliyotiga joriy qilish); muammoni hal qilishdagi xalqaro hamkorlik, muammoni hal qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va kelajakdagi yoʻnalishlarga e'tibor berish boʻyicha ma'lumotlar berilgan. Ushbu bob boʻyicha quyidagi xulosalarni keltirish mumkin: integratsiyalashgan yondashuvlarni joriy qilish (tuproq eroziyasi dinamikasini yaxlit tushunish uchun tuproqshunoslik, gidrologiya, agronomiya va iqlimshunoslikni birlashtirgan fanlararo tadqiqotlar zarur); imkoniyatlarni oshirish

(oʻqitish va salohiyatni oshirish tashabbuslari tadqiqotchilar va amaliyotchilarning tuproq eroziyasini boshqarish boʻyicha bilimlarini oshirish); iqlim oʻzgarishiga moslashish (iqlim oʻzgarishi kuchayib borar ekan, tadqiqot iqlim oʻzgarishi va tuproq eroziyasi oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirni oʻrganishi, moslashish va chidamlilik strategiyalarini aniqlash).

Dissertatsiyaning **“Physical and geographical conditions of Ugam-Chatkal national park” (Ugom-Chotqol milliy bogʻining fizik-geografik sharoitlari) va “Interaction of soil erosion with groundwater and climate change issues” (Tuproq eroziyasining yer osti suvlari bilan oʻzaro taʼsiri va iqlim oʻzgarishi muammolari)** deb nomlangan ikkinchi va uchinchi boblari Oʻzbekistonda tuproq eroziyasi muammolari, keltirib chiqaruvchi omillar va tuproq eroziyasining iqlim oʻzgarishi va yer osti suvlari bilan bogʻliqligiga bagʻishlangan. Ushbu bobda tuproq eroziyasining oʻzaro taʼsirining bir qancha jihatlari tahlil qilingan. Oʻzbekistondagi tuproq eroziyasi muammolari qisqacha tahlili, tuproq eroziyasining turlari, tuproq eroziyasini keltiruvchi omillar haqida maʼlumotlar keltirilgan. Tadqiqot obʼyekti lyossimon tub jinslardan shakllangan boʻlib, dengiz sathidan balandlik oshgan sari lyossimon togʻ jinslarning qalinligi kamayib borishi, prolyuvial, delyuvial-prolyuvial yotqiziqlar bilan tasniflanishi kuzatilgan. Tadqiqot obʼyektining tabiiy sharoitlari eroziya jarayonlarining jadal borishiga taʼsir qiluvchi asosiy omillardan biri boʻlib, hududning notekis relyef sharoiti tuproqning yuvilishiga, natijada oʻsimliklarning oʻsishi va rivojlanishi uchun muhim boʻlgan ozuqa moddalariga boy ustki qatlamning yoʻqotilishiga, bu esa oʻsimliklarning yangilanishiga toʻsqinlik qilishiga, milliy bogʻdagi biologik xilma-xillik va ekologik muvozanatni buzilishiga sabab boʻladi. Shu bilan bir qator notekis relyef sharoitida shakllangan qiyaliklarining kuchli nishabligi, ekspozitsiyasi, bahorgi va kuzgi-qishki mavsumlarda yogʻadigan yogʻingarchilik sababli tuproqlarning yuvilishi va oʻpirilishi oqibatida qiyaliklarning beqarorlashishi ularning strukturaviy yaxlitligini zaiflashtirishi, tabiiy muhitga tahdid soladigan halokatli hodisalar ehtimolini oshirishi bilan izohlanadi. Tadqiqot obʼyektining iqlim sharoiti spetsifik xususiyatlarga ega boʻlib, dengiz sathidan balandlik oshishi bilan havo haroratining birmuncha past boʻlishi, yogʻinlar miqdorining ortishiga bogʻliq ravishda oʻsimlik, tuproq tiplarini oʻzgarishiga sabab boʻladi.

Dissertatsiyaning **“Transforming landscapes: land use and cover change analysis in Ugam-Chatkal national park” (Landshaft oʻzgarishi: Ugom-Chotqol milliy bogʻida yer qoʻplami oʻzgarishi tahlili)** deb nomlangan toʻrtinchi bobida Ugom-Chotqol milliy bogʻi tuproq va oʻsimlik qoplamining 20 yillikdagi oʻzgarishlarini bir qancha mezonlarga koʻra aniqlash jarayonlarini amalga oshirish davomida olingan tahlil natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar davomida 2000-2020 yillar orasidagi 10% gacha bulutlilikka ruxsat berilgan, iyun oyida olingan Landsat-5 TM va Landsat 8 (OLI & TIRS) rusumdagi sunʼiy yoʻldoshlari Earth explorer platformasidan foydalangan holda sunʼiy yoʻldosh tasvirlarini yuklab olingan (1-jadval, 1-rasm). Landsat sunʼiy yoʻldosh tasvirlari 30x30 m oʻlchamlari bilan sakkizta 30 m aks ettirish diapazoni, bitta 15 m panxromatik va ikkita 100 m termal diapazonga ega.

1-jadval

Tadqiqot obyektida yerdan foydalanish va yer qoplamini baholash natijalari

Sinflar	Yer maydoni (κv km)		
	2000	2010	2020
Qor	3200.3	1513.96	587.019
Bosh yerlar	1686.68	2239.74	2273.74
Suv	54.3852	73.8441	45.8622
O‘simliklar qoplami	1684.19	2798	3741.37







a) 2000 yil b) 2010 yil v) 2020 yil

1-rasm. Tadqiqot obyektining NDVI xaritasi

Global iqlim o‘zgarishining Markaziy Osiyo mintaqasiga ta’siri yil sayin ortib bormoqda va bu dinamikani tahlil qilishda masofaviy zondlash va geografik axborot tizimlarining ahamiyati ortib borayotganini ta’kidlamoqda. Tadqiqot olib borilgan davrda milliy bog‘da qor qoplamining qisqarishi kuzatildi. Antropogen ta’sirlar bog‘ning janubiy-g‘arbiy hududlarida bo‘sh yerlarning kengayishiga olib keldi. Yillik yog‘ingarchilikning o‘zgarishi, asosan, shimoliy mintaqada o‘sish, janubiy hududlarda esa pasayish holatini ko‘rsatdi.

Dissertatsiyaning **“Evaluating groundwater potential: precision of geospatial data in multi-criteria decision analysis”** (Yer osti suvlari potensialini baholash: ko‘p mezonli qarorlar tahlilida geofazoviy ma’lumotlarning aniqligi) deb nomlangan beshinchi bobida tadqiqot obyektining gidrologik, geologik, geofizik va geomorfologik vositalarni o‘z ichiga olgan yer osti suv resurslarini xaritalashda ko‘pincha ishlatiladigan an’anaviy usullarni qimmatligi, vaqt va mehnat talab qilishi, ushbu ishni amalga oshirishda keng imkoniyatlar yaratuvchi yondashuvlar - yer osti suvlari potensial zonalarini tahlil qilish uchun masofaviy zondlash va GAT texnologiyasidan foydalanish mumkinligi qayd etilgan. Tadqiqotlar davomida

sun’iy yo‘ldosh tasvirlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yer osti suvlari hududlarini ko‘rsatmasada, masofadan zondlash tahlili yer osti suv qatlami mavjudligini keyingi ko‘p mezonli tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkinligi kuzatilgan. Ushbu jarayonni bajarishda tadqiqot obyektida mavjud buloqlarning joylashuvi va geofazoviy texnikadan foydalangan holda yer osti suvlari potensial zonalarini belgilash uchun ta’sir etuvchi ko‘p mezonli qarorlarni tahlil qilish vositasining to‘g‘riligini o‘rganishga qaratilgan. Yer osti suvlarining umumiy tematik qatlamlari suvli qatlamlarning mavjudligini aniqlash uchun tayyorlangan, ya’ni raqamli balandlik modeli (DEM), qiyalik, tuproq xaritasi, geologik xarita, yerdan foydalanish yer qoplami (LULC), oqim yaqinligi, oqim zichligi, egrilik, topografik namlik indeksi (TWI) va asos bo‘luvchi sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari va boshqa birlamchi manbalardan olingan yog‘ingarchilik qatlamlari ArcGIS va ERDAS Imagine dasturlarida ko‘p mezonli qarorlarni tahlil qilish vositasi uchun muhim qatlamlar sifatida qayta ishlangan (2-rasm).



2-rasm. Yer osti suvlari potentsiyalini xaritalash metodologiyasining sxemasi

Ko‘p mezonli qarorlarni tahlil qilish vositasi, xususan, ta’sir etuvchi omil usuli, GATda yer osti suvlari potensial zonalarini belgilash uchun keng qo‘llaniladi. MCDA vositasi Saati tomonidan ishlab chiqilgan va barcha tematik qatlamlarni ularning og‘irlik qiymatiga ko‘ra birlashtirishga yordam beradi. Tadqiqotlar davomida quyidagi formuladan foydalangan holda yakuniy xaritani yaratish uchun yer osti suvlarining shakllanishiga hissa qo‘shadigan turli jihatlarga mos keladigan turli tematik qatlamlar birlashtirilgan (3-rasm).



3-rasm. Yer osti suvlairing potensial zonalarini baholashda ishlatiladigan tematik qatlamlar: (a) nishablik, (b) raqamli balandlik modeli, (c) egrilik, (d) topografik namlik indeksi, (e) geologiya, (f) tuproq, (g) yer foydalanish va yer qoplami, (h) yog‘ingarchilik, (i) oqim zichligi, (j) oqimning yaqinligi

$$GPZ=\sum_{i}^{n}(Xa * Yb),$$

bu yerda X – tematik qatlamlarning og‘irligini ifodalaydi;
Y- mavzuli qatlam sinflari darajasi;
a – (a=1,2,3,……, x) tematik qatlamlar;
b –(b=1,2,3,… …, y) tematik qatlamlar sinflarini ifodalaydi.

Har bir qatlamning har bir sinfini o‘lchov shkalasi bo‘yicha 1 dan 9 gacha tartiblangan, bu yerda 1 - eng kam ustuvor qatlam (yer osti suvlarining potensial mavjudligiga eng kichik ta’sir etuvchi) va 9 - eng ko‘p ustuvor qatlam (yer osti suvlarining mavjudligiga eng yuqori ta’sir etuvchi)dan iborat. Qatlamlarning ko‘pchiligi beshta sinfga ega, chunki ular tabiiy uzilishlar yordamida qayta tasniflangan.



4-rasm. Tadqiqot hududida kuzatilgan yer osti suvlari potensial zonalari va buloqlar xaritasi

Yakuniy xaritada yer osti suvlarining potensial zonalari 5 ta sinfga bo‘lingan: juda pastdan juda yuqorigacha (4-rasm). Tadqiqot obyektida yer osti suvlari mavjudligining yuqori va juda yuqori ehtimoli Chorvoq suv ombori atrofida hamda Chirchiq daryosi bo‘yida sodir bo‘lishi aniqlangan. Tog‘lar bilan qoplangan hududlarda yer osti suvlari resurslari kam va juda past. Qolgan hududlar yer osti suvlari uchun o‘rtacha salohiyatga ega.

Dissertatsiyaning **“Unveiling erosion dynamics: object-based image analysis and earth observation” (Eroziya dinamikasini baholash: obyektga asoslangan tasvirni tahlil qilish)** deb nomlangan oltinchi bobida eroziya va ko‘chki jarayonlarining avtomatik tarzda xaritalash haqida ma’lumotlar qayd etilgan. Tadqiqotlar davomida Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumanidagi muhim obyekt bo‘lgan Chorvoq suv ombori atrofi uchun eroziya va ko‘chki jarayonlarini avtomatik tarzda aniqlash uchun OBIA usuli amalga oshirilgan. Ushbu jarayon O‘zbekiston hududida masofadan zondlash ma’lumotlaridan foydalangan holda avtomatlashtirilgan eroziya va ko‘chki inventarizatsiyasini o‘tkazish bo‘yicha birinchi urinishdir. Asosiy maqsadlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin: tasniflash uchun GeoEye-1 dan foydalanish; OBIA ning yer qoplamining tasnifi va eroziya va ko‘chki jarayonlarining avtomatik tarzda aniqlash uchun muvofiqligini tekshirish.

Yer qoplamining tasnifi. Dala kuzatishlari asosida tuzilgan yer qoplamining tasnifi (5-rasm). Yer qoplamining 15 ta sinfi orasida o‘rganilayotgan hududda butazorlar, o‘tloqlar, suv va siyrak o‘rmonlar ustunlik qiladi va mos ravishda 28,37%, 18,22%, 11,31% va 10,47% ni tashkil qiladi (2-jadval). O‘rganilayotgan hududning 5,5 foizida ko‘chki va eroziya aniqlangan.



5-rasm. Obyektga asoslangan yer qoplami xaritasi

2- jadval

Gektar va foizlarda individual sinf qamrovi

Sinf	maydoni (ga)	maydon (%)
Eroziya va ko‘chkilar	1690.32	5.50%
Tub tog‘ jinsi	1510.04	4.91%
Ochiq tuproq	506.13	1.65%
Ekin maydonlari	445.41	1.45%
Past intensiv qishloq xo‘jaligi yerlari	1234.75	4.02%
Yuqori intensiv qishloq xo‘jaligi yerlari	182.41	0.59%
Yaylovlar	5603.02	18.22%
Butazor yer	8723.01	28.37%
Siyrak o‘rmon	3221.13	10.47%
Qalin o‘rmon	586.06	1.91%
Soyalar	1097.84	3.57%
Suv	3476.82	11.31%
Asfaltlanmagan yo‘llar	458.38	1.49%
Asfaltlangan yo‘llar	145.80	0.47%
Qurilish ostidagi yerlar	1871.39	6.09%

Ushbu tadqiqotda tadqiqot obyekti uchun OBIA va GeoEye-1 masofadan zondlash ma’lumotlaridan foydalangan holda birinchi avtomatlashtirilgan ko‘chki va eroziya jarayonlari xaritasi taqdim etildi. Optik sensorlar (masalan, GeoEye-1)

va OBIA usuli ko‘chki va eroziya jarayonlarini aniqlash uchun yuqori aniq natijalar berishi kuzatildi. Olingan natijadan ko‘chki va eroziya jarayonlarini batafsil inventarizatsiyasini yaratish uchun foydalanish mavjud xaritalar bilan birlashtirilishi mumkin. Natijalar uni keng miqyosda tatbiq etish va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikda hududiy tadqiqotlar olib borish uchun ushbu idoralarga taqdim etildi.

Dissertatsiyaning “**Mapping soil erosion: integrating geospatial techniques with RUSLE in Ugam-Chatkal national park”** (Tuproq eroziyasini xaritalash: Ugom-Chotqol milliy bog‘ida geofazoviy usulni RUSLE modeli bilan birlashtirish) deb nomlangan yettinchi bobida O‘zbekistonning tog‘li hududi uchun yillik tuproq eroziya tezligini baholash uchun geofazoviy usul va RUSLE modelini qo‘llashga qaratilgan. Ushbu tadqiqot qo‘riqlanadigan tog‘li va eroziyaga juda moyil bo‘lgan Ugom-Chotqol milliy bog‘i hududida olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi yillik tuproq yo‘qotilishini baholash uchun RUSLE modeli va geofazoviy usuldan foydalanish edi. RUSLE - empirik eroziya modeli bo‘lib, u tuproq xavfi va o‘rtacha yillik yo‘qotishlarni hisoblash uchun foydali ekanligi isbotlangan. Yillik tuproq yo‘qotilishini hisoblash uchun RUSLE modeli R-factor, P-factor, K-factor, LS-factor, va C-factor kabi fizik xususiyatlar va dinamik parametrlardan foydalanadi (6-rasm).



6-rasm. RUSLE modeli uchun tematik qatlamlar



7-rasm. Ugom-Chotqol milliy bog‘ining yillik tuproq yo‘qotish xaritasi

Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, Ugom-Chotqol milliy bog‘i suv eroziyasiga moyil. Tuproq eroziyasining o‘rtacha yillik darajasi 0,00 dan 250 t ga-1 yil-1 gachani tashkil qildi. Ugom-Chotqol milliy bog‘ida hisoblangan o‘rtacha yillik tuproq yo‘qotishlari natijalarning minimal va maksimal qiymatlari bo‘yicha besh sinfga bo‘lingan. 7-rasmda har bir sinfning taqsimoti ko‘rsatilgan.

XULOSALAR

1. Scopus bazasidagi nashrlar MDH mamlakatlarida tuproq eroziyasi bo‘yicha tadqiqotlar jadal rivojlanayotganidan dalolat bermoqda. Bu mamlakatlar tadqiqotchilari tuproq eroziyasi dinamikasi va uning oqibatlarini global tushunishga faol hissa qo‘shmoqda. Tuproqni muhofaza qilishga doir tadqoqtlarda Scopus kabi bazalarning tutgan o‘rni salmoqli ekanligi tasdiqlandi va tavsiya etildi.
2. Suv sifatini saqlash, yerdan barqaror foydalanishni qo‘llab-quvvatlash va muhim yer osti suv resurslarini himoya qilish uchun har ikki jihatni hisobga olgan holda yer va suvni boshqarishning integratsiyalashgan amaliyoti zarur ekanligi aniqlandi.
3. Ugom-Chotqol milliy bog‘ining janubi-g‘arbiy qismida bo‘sh yerlar maydoni ko‘paygani kuzatilgan. Yillik yog‘ingarchilikning o‘zgarishi - asosan shimoliy hududlarda ko‘payishi va janubiy hududlarda kamayib borishi kuzatildi.
4. Tadqiqot natijalari Ugom-Chotqol milliy bog‘ining potensial yer osti suvlari zaxiralarini aniqlashda foydali bo‘lishi mumkin va metodologiyani iqtisodiy va samarali usul sifatida suv xavfsizligi va suv resurslarini boshqarish masalalarini hal qilish uchun mamlakat darajasiga ekstrapolyatsiya qilish mumkin va ko‘p

vaqtni talab qilmasligi aniqlandi va qo‘llash uchun tavsiya etildi.

5. Juda yuqori aniqlikdagi optik sensorlar (masalan, GeoEye-1) va OBIA eroziya va ko‘chki jarayonlarini aniqlash uchun juda aniq natijalar berdi. Olingan natijalar eroziya va ko‘chki jarayonlarining batafsil inventarini yaratish uchun milliy miqyosda ishlatilishi va kengaytirilishi va mavjud qo‘lda tayyorlangan xaritalar bilan birlashtirilishi mumkinligi aniqlandi.
6. Ugom-Chotqol milliy bog‘ida tuproq eroziyasining o‘rtacha yillik yo‘qotilishini baholash uchun topografik ma’lumotlar, tuproq turi, yer qoplami, yerdan foydalanish turi va yog‘ingarchilik miqdori bo‘yicha ma’lumotlardan foydalanildi, ular geofazoviy usullar asosida RUSLE modelidan foydalangan holda hisoblab chiqildi. RUSLE modelidan foydalangan holda yillik tuproq eroziyasini baholash 0,1 dan >250 t ga-1 yil-1 oralig‘ida joylashgan. Suv eroziyasining fazoviy taqsimoti RUSLE asosida GAT va masofadan zondlash yordamida samarali aniqlanadi va qo‘llash uchun tavsiya qilindi.
7. Landsat-5 TM va Landsat 8 (OLI & TIRS) sun’iy yo‘ldoshlari tasvirlarini geofazoviy tahlil asosida yaratilgan o‘simlik indeksi (NDVI), yer qoplamining o‘zgarishi (LULC) va yog‘ingarchilik ko‘rsatkichlari aks ettirilgan tematik xaritalari Chotqol hududining 5746 kv. km maydonida tarqalgan o‘simlik dunyosi va yer qoplamining holatini tahlil qilish va uni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun tavsiya qilindi.
8. MCDA modeli yordamida yaratilgan tematik xaritalar tadqiqot obyekti yer osti suv manbalari va tuproq eroziyasi jarayonlari o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi potensial yer osti suv manbalari hosil bo‘ladigan hududlarni tasniflashda foydalanish tavsiya etildi.
9. OBIA (Object-Based Image Analysis) modeli imkoniyatlaridan foydalanilgan holda yuqori aniqlikdagi GeoEye-1 sun’iy yo‘ldosh tasvirlarining geofazoviy tahlili asosida yaratilgan tadqiqot obyektining eroziya xavfi mavjud hududlari aks ettirilgan tematik xaritalar tog‘ va tog‘oldi hududlarida kechuvchi eroziya jarayonlarini avtomatik xaritalashda foydalanish tavsiya etildi.
10. RUSLE modelining asosida yaratilgan eroziya jarayonlarini keltirib chiqaruvchi omillar va ushbu jarayonlar tufayli yillik tuproq yo‘qotilishi ma’lumotlari aks ettirilgan tematik xaritalar eroziyaga uchragan tuproqlarni holatini yaxshilash bo‘yicha ekologik asoslangan tuproqni muhofaza qilish chora-tadbirlarini to‘g‘ri qo‘llash, lalmi yerlarda ekin turlarini to‘g‘ri tanlash va joylashtirishda foydalanish tavsiya etildi.

ONCE-ONLY SCIENTIFIC COUNCIL ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/27.02.2020.B.01.15 AT NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

"TASHKENT INSTITUTE OF IRRIGATION AND AGRICULTURAL MECHANIZATION ENGINEERS" NATIONAL RESEARCH UNIVERSITY

JULIEV MUKHIDDIN KOMILOVICH

THEORETICAL FOUNDATIONS AND METHODOLOGY FOR MODELING EROSION PROCESSES IN MOUNTAIN AND FOOTHILL REGIONS OF UZBEKISTAN (case of Tashkent region)

11.00.05– Environmental protection and rational use of natural resources

DISSERTATION ABSTRACT OF THE DOCTORAL DISSERTATION (DSc) OF BIOLOGICAL SCIENCES

Tashkent – 2024

Subject of this dissertation for a degree of Doctor of biological sciences (DSc) has been registered under no. B2024.1.DSc/B223 by the Supreme Attestation Commission under the ministry of Higher education, science and innovation of the Republic of Uzbekistan.

The dissertation has been prepared at the "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers"National Research University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (abstract)) on the webpages of the Scientific Council (http://nuu.uz) on the website "ZiyoNet" Information-educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific consultant:	**Gafurova Lazizakhon Akramovna** doctor of biological sciences, professor
Official opponents:	**Turabaev Akmal Normuminovich** doctor of biological sciences, professor
	Shadieva Nilufar Iskandarovna doctor of biological sciences, associate professor
	Hasan Odilovich Boboev doctor of agricultural sciences, associate professor
Leading organization:	**Fergana State University**

The defense of the dissertation will take place on August 24, 2024, at 10^{00} at the meeting of the Scientific Council DSc.03/27.02.2020.B.01.15 on awarding scientific degrees at the National University of Uzbekistan at the following Address: 100174, Tashkent city, Almazar district, Student's town, University st., 4, Building of the Faculty of Ecology at the National University of Uzbekistan, 2nd floor. Room 203. Phone: (+99871-246-67-72).

The dissertation has been registered at the Information-Resource Center of the National University of Uzbekistan (Registration number No.72). Address: (100174, Tashkent city, Almazar district, Student's town, University st., 4, Phone: (+99871-246-67-72)).

The abstract of the dissertation has been distributed on August 2nd, 2024.

(Protocol at the register No.19 dated on August 2nd, 2024).

Rakhimova Tura
Chairman of one-time scientific Council for awarding of scientific degrees, Doctor of Biological Sciences, Professor

Allaberdiev Rustamjan Khamraevich
Scientific Secretary of one-time Scientific Council on awarding scientific degrees, Candidate of Biological Sciences, associate professor

Jabborov Zafarjon Abdukarimovich
Chairman of the Scientific Seminar at the one-time scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Biological Sciences, Professor

INTRODUCTION

Relevance and necessity of the dissertation topic. Today, soil degradation has become one of the main environmental problems in the world, and according to estimates, about 25% of the total land area is degraded. Around the world, 24 billion tons of fertile soil is lost due to erosion every year. By 2050, the world's population is expected to increase by 35 percent to 9.7 billion, which will increase the demand for agricultural products such as food, feed, fiber, and fuel[1]. Therefore, timely identification of degraded land, calculation of its area, stopping and prevention of the process are urgent tasks using modern technologies.

In the world, scientific research is being conducted in the direction of using modern technologies to solve problems related to soil erosion. In this regard, more effective use of new methods of remote sensing in determining, mapping, monitoring and modeling of soil erosion, geoecological assessment of lands with erosion risk in mountain and foothill regions using satellite images, and the use of geoinformation systems are aimed at special attention is paid to the implementation of scientific research.

A number of scientific studies on the monitoring of protected natural areas, including national parks, are being carried out in the republic in the last years, and certain results are being achieved in this regard. Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated 11.06.2019 No. 484 "On approval of the strategy for the preservation of biological diversity in the Republic of Uzbekistan for the period 2019-2028"[2]…creation of a single centralized monitoring system for biodiversity components in reference ecosystems and creation of an information database for state monitoring of negative effects on these components due to soil degradation based on modern geoinformation technologies (GIS technologies)" is defined as one of the important strategic tasks. In this regard, it is important to create a cartographic database of territories using remote sensing and GIS technologies of degraded lands, various modeling methods, constantly update it, adapt to climate change and prepare soil erosion forecasting maps, as well as create measures to prevent land degradation.

This dissertation research to a certain extent serves to fulfill the tasks stipulated in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 31, 2017 PD-5065 "On measures to strengthen control over the protection and rational use of land, improve geodetic and cartographic activities, streamline the maintenance of state cadastres", the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 11, 2023 PD-158 "On the strategy “Uzbekistan-2030””, Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated July 19, 2017 No. 530 "On measures to further improve the forestry management system", as well as in other legal documents adopted in this area.

This dissertation serves to a certain extent in the implementation of the tasks specified in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May

[1]https://www.thegef.org/what-we-do/topics/land-degradation

[2]Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated 11.06.2019 No. 484 "On approval of the strategy for the preservation of biological diversity in the Republic of Uzbekistan for the period 2019-2028"

